

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

“YANGI O`ZBEKISTON STRATEGIYASI”

Do‘Sjonova Nilufar Rustam Qizi, Baxtiyorova Munira Mansur Qizi

2 kurs talabasi, Bakalavr Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: *Quyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning „Yangi O‘zbekiston strategiyasi“ nomli kitobi, uning 7 ta bo‘limi va shu bo‘limlar o‘z ichiga qanday mavzu hamda masalalarni olganligi haqida alohida qisqacha ta‘rif berib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Prezident, Renessans, strategiya, ijtimoiy siyosat, tashqi siyosat iqtisodiyot, umumbashariy muammolar, xalqparvar davlat, svilizatsiya, jamiyat, innovatsion taraqqiyot, ekologik bo‘ronlar, radikalizm, terrorizm, ekstremizm.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning mazkur yilda yangi «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi» nomli kitobi chop etildi. Unda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Ushbu kitob muqaddima, 7 bo‘lim va xotimadan iborat.

Bo‘limlar quyidagicha nomlangan:

- 1.«Yangi O‘zbekiston strategiyasi»
- 2.«Xalqparvar davlat»
- 3.«Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish»
- 4.«Adolatli ijtimoiy siyosat»
- 5.«Ma‘naviy taraqqiyot»
- 6.«Xavfsizlik va tashqi siyosat»
- 7.«O‘zbekiston va umumbashariy muammolar».

Kitob so‘zboshida aytilishicha, ushbu kitobda Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi. «Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir», — so‘zlari bilan kitob boshlanadi. Prezident matbuot kotibining ma‘lum qilishicha, Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturi ham «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» deb nomlanadi.

Ushbu kitobning har bitta bo‘limi o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga egadir. Ana endi ular bilan yaqindan qisqacha tanishib chiqamiz. Bulardan birinchi bo‘limi „Yangi O‘zbekiston Strategiyasi“ deb nomlanadi. Bu bo‘limda xususan Yangi O‘zbekistonning orzusi, fenomeni, yangilanish va taraqqiyot omillari va yangilanayotgan O‘zbekiston haqida so‘z yuritiladi.

Aynan hozirgi kunda yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir.

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston strategiyasi hayotbaxsh xususiyat kasb etmoqda, ya'ni xalqimizni yorug' kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanib bormoqda desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

„O'z kuch va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni yangi o'zbekistonni barpo etish va yangi uyg'onish davri poydevorini yaratishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda”,-deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Shu tariqa uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oyava amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'ldi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi, oliyanob niyatlarni amalga oshirish, yangi hayot qurish yo'lidagi beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoiylik va bunyodkorlikni, yanada kata jonbozlikni talab etmoqda.

Biz Yangi O'zbekistonni mard va oliyanob xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor niyatni o'z oldimizga qo'yanmiz. Bu borada „Jamiyat-islohotlar tashabbuskori”-degan yondashuv kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Chunki, bugungi xalqimiz-kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham-kechagi O'zbekiston emas. Shu bois, demokratik islohotlar yo'libiz uchun yakkayu-yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, horijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotimizni, o'qish va ish uslubimizni takomillashtirishga harakat qilmoqdamiz desak yanglishmagan bo'lamiz.

Mazkur kitobning ikkinchi bo'limi „Xalqparvar davlat” deb nomlanadi. Bu bo'limda „Davlat-inson uchun” tamoyili-demokratik islohotlar mezonini, Davlat organlari, Davlat boshqaruvining svilizatsiyaviy imkoniyatlari, hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyati, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti, mustaqil va odil sud tizimi, erkin va ochiq fuqarolik jamiyati va ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalari haqida so'z yuritiladi.

Jumladan, „Davlat-inson uchun” tamoyiliga amal qilish, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson manfaatlarini, haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchi bo'limi „Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish” deb nomlanadi va bunda iqtisodiyot-jamiyat hayotining tanasi ekanligi, xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, suv resurslarini samaradorligini oshirish, hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti, Turizm-O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri, raqamli iqtisodiyot sari tashlanayotgan qadamlar haqida so'z boradi.

To'rtinchi bo'limi „Adolatli ijtimoiy siyosat” deb nomlanib, bu bo'limda kuchli ijtimoiy siyosat uning mohiyati va imkoniyatlari, Sog'liqni saqlash, muammolar va echimlar, sog'lom turmush tarsi madaniyati, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim va tarbiya, yangi imkoniyatlar, ilm-fan-innovatsion taraqqiyot asosi, ayol baxtli bo'lsa jamiyat baxtlidir, yoshlar-Yangi O'zbekiston bunyodkori mavzulari asosida so'z yuritiladi.

Beshinchi bo'limi „Ma'naviy taraqqiyot” deb nomlanadi. Bu bo'limda Ma'naviy yangilanish, imkoniyat vaistiqbollar, yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar, ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi, Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish, ma'rifatli jamiyat sari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi haqida yoritilib o'tilgan.

Oltinchi bo'lim „Xavfsizlik va tashqi siyosat” deb nomlanadi. Bu bo'lim quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyati, Ochiq va progmatik faol tashqi siyosat-

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

ustuvor vazifamiz, BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va shu bilan birgalikda Markaziy-Janubiy Osiyo va O`zbekiston taraqqiyoti kabi.

Nihoyat yakunlovchi yettinchi bo`lim „O`zbekiston va umumbashariy muammolar“ deb nomlanadi hamda bub o`limda davrimizning global muammolari va O`zbekiston taraqqiyoti, iqlim o`zgarishlari, ekologik bo`ronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati, Radikalizm, ekstremizm va terrorizm-barqaror taraqqiyot kushandasi sifatida, korruptsiyadan holi dunyo-umumbashariy orzu, kambag`allik: umuminsoniy va milliy muammolar, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosati va oxirgi mavzu bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ya`ni pandemiya tahdidi va unga qarshi kurash tajribamiz deb nomlangan va kengdan bayon etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, jamiyatimizning bugungi taraqqiyot bosqichi uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, ma`naviy va ma`rifiy hayotida o`zgarish, yangilanish va inkor dialektikasi bilan bog`liq holatlar tabiiy tarzda ro`y bermoqda. Ushbu murakkab va serqirra yangilanish jarayonida hayotning barcha jihatlari va xususiyatlari bir kunda va avtomatik tarzda o`zgarib, yangilanib ketmaydi, albatta. Bugungi yangi davrning ijtimoiy-siyosiy tuzilishiga mos keladigan, yangi tizim va tuzilmalar shakllanishi va oyoqqa turib ketishi uchun ish uslublarimiz va faoliyatimiz mezonlarini doimiy takomillashtirib borishimiz zarur. Jahonda koronavirus pandemiyasi va global inqiroz davom etayotgan hozirgi murakkab sharoitda mamlakatimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, Yangi O`zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo`lishini ta`minlash eng asosiy vazifamiz bo`lishi shart. Barchamiz aminmizki, yuksak salohiyatli xalqimiz o`zining g`ayrat shijoati va fidokorona mehnati bilan yurtimizda **Yangi O`zbekiston-Uchinchi Renessansni** bunyod etishga albatta qodir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning shu kabi ilg`or g`oyalarini, fikrlarini qo`llab-quvvatlagan holda faxr va iftixor ila shuni ayta olamanki, men millati, tili va dinidan qat`I nazar, barcha yurtdoshlarimiz, tengdoshlarimiz bilan birgalikda ana shunday ulug` va sharaflı safda-Yangi O`zbekiston bunyodkorlari safida ekanligimdan behad baxtiyorman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev "YANGI O`ZBEKISTON STRATEGIYASI".-Toshkent „O`zbekiston“ nashriyoti, 2021. 464 bet.